BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI DARSLARINI BOSQICHMA-BOSQICH VA SAMARALI TASHKIL ETISH

Abdujalilova Sarvinoz Rashid qizi
O'qituvchi
Guliston davlat pedagogika instituti
Ne'matova E'tibor Zarif qizi
Talaba
Guliston davlat pedagogika instituti
Xaitboyeva Sadoqat Shavkat qizi
Talaba
Guliston davlat pedagogika instituti
Shamsiddinova Vasila Xayrullo qizi
Talaba
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarini boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qanday qilib bosqichma-bosqich ,ketma-ket va samarali tarzda tashkil etish haqida yoritilgan. Shu bilan birgalikda ushbu darslarda o'quvchining faolligi va chet tillarini boshlang'ich sinflarda qanday qilib to'gri shakllantirish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ingliz, til, boshlang'ich, sinf, bosqichma – bosqich, zamonaviy, metodlar, o'qitish.

Annotation: This article is illuminated by the organization of English language lessons how to organize the primary position, in a row and effectively. At the same time, these classes are illuminated on the activity of the student and how to properly formulate foreign languages in primary schools.

Keywords: English, language, primary, grade, step-by-step, modern, methods, teaching.

Boshlang‘ich ta’limda ingliz tili o‘qitishning zamonaviy maqsad, mazmun va texnologiyalarini takomillashtirish, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga ingliz tili o‘qitish amaliyotida to‘plangan an’anaviy va xorijiy tajribalarni umumlashtirishga xizmat qiluvchi o‘quv qo‘llanmalarning yetishmasligi oqibatida mazkur soha uchun pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida yetarlicha samaradorlikka erishilmayapti.

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so‘zlasha olishi barchaga ma’lum. Jahonda globallashuv jarayonlarini tezlashtirish, erkin bozor munosabatlariga o‘tish va ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etishning rag‘batlantirilishi «lingvistik kapital»ga, ya’ni chet tillarni (ayniqsa, ingliz tilini) mukammal egallagan mutaxassislarga ehtiyojni kuchaytirmoqda. Chet til ta’limida sifat va samaradorlikni ta’minlash maqsadida chet tillarni o‘rganish/o‘rgatish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Bunga «the younger the better / early is better» mazmunidagi tushunchaning keng tarqalganligi sabab bo‘ldi.

Boshlang’ich sinflarda , ayniqsa, birinchi sinfda o’quvchilarga chet tillarni o’rgatishda o’quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta’kidlanganidek, birinchi sinflarda o’yin tarzidagi darslar va og’zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o’rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o’quvchilarga mosligidir. Ta’limda o’yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O’yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta’limga o’yin orqali yondashuv ta’lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. Shubhasiz, mamlakatimiz ta’lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o’qitishning ilg’or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va o’smirlarni xorijiy tillarga o’rgatuvchi ko’rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag’ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o’zbekcha subtitr yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining o’tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishishi imkonini berdi.

Til bilish ko’plab keng imkoniyatlar yaratadi. Dunyo kezishga, biznesga, ilm olishga, dunyoqarashiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi, albatta. Chet tillari maktab o’quvchilariga ya’ni, boshlang’ich sinf o’quvchilariga bosqichma – bosqich o’rgatilishi yo’lga qo’yilgan. Bu jarayonda 1-sinf o’quvchilariga o’zlariga mos tarzda, asosan, multimediali va og’zaki o’rgatish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. 1-sinf o’quvchilarida o’zlarining ona tilisi haqida to’lliq 84 tushuncha va bilim hosil qilmasdan turib ularga ingliz tili alifbosi va yozuv malakasini mutlaqo noto’g’ri hisoblanadi. Shuning uchun ham ingliz tilidan ularga ilk saboqlar o’yinlar, multimedia vositalari va og’zaki usulda o’rgatiladi, so’ngra o’quvchilar 2-sinfga o’tishgach ularda savod o’rgatish davri to’lliq yakunlangan bo’ladi va shu davrdan boshlab ularga ingliz alifbosi va yozuv malakalarini o’rhatish va o’quvchilar bilimini shakllantirishni yo’lga qo’yish darkor. Shu tariqa ularda chet tilini shakllantirish va rivojlantirish amalga oshirish mumkin. Ingliz tili o’zining ko’plab jihatlari va qiziqarli xususiyatlari bilan o’quvchining qiziqishiga va bu tilni jiddiy o’rgasnishga olib keladi.

Ingliz tilini o‘qitishda o‘quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish , ehtiyojni to‘la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muammoning amaliy yechimini ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga til o‘rganishni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli o‘yinlar va metodlardan foydalangan holda olib borishi , ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi

mumkin. Shunday ekan, ta’lim tizimida ham o‘z oldiga erkin fikrlovchi , barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo‘yar ekan, kelgusida biz bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llarini yanada mukammal ishlab chiqish bilan o‘z hissamizni qo‘shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jalolov J.J. chet tillari o‘qitish metodikasi. Toshkent 2020.
2. Xoshimov O‘. Yoqubov I. ingliz tili O‘qitish metodikasi. T – 2003.
3. Turdialiyeva G.N “Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar”2020.